

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/15.12.2022.I.155.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

BOLTAEV NAZARBEK NARZULLAEVICH

**UZUMCHILIK MAJMUIDA TASHKILY-IQTISODIY
MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doctori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)

Boltayev Nazarbek Narzullayevich Uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish.....	3
Болтаев Назарбек Нарзуллаевич Развитие организационно-экономических отношений в комплексе виноградарства	27
Boltaev Nazarbek Narzullaevich Development of organizational and economic relations in the viticulture complex	53
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	57

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/15.12.2022.I.155.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

BOLTAEV NAZARBEK NARZULLAEVICH

**UZUMCHILIK MAJMUIDA TASHKILY-IQTISODIY
MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt2116-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Oblomuradov Narzullo Naimovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Ergashev Erkin Irokovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Sultanov Baxodir Fayzullaevich,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Etakchi tashkilot: **Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/15.12.2022.I.155.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000. Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: +998 88 801 36 00, e-mail: scientificcouncil@iau.uz

Dissertatsiyasi bilan Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000. Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: +998 88 801 36 00, e-mail: scientificcouncil@iau.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi)

I.B. Rustamova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.E. Primov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

M.A. Aminova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosatshunoslik fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik toza, vitamanga boy va shifobaxsh xususiyatlarga ega qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab yuqori. Shu jumladan, uzum – jahonda iste'mol bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan va eng ko'p etishtiriladigan meva turlaridan biri sanaladi. Uzumchilik va enologiya xalqaro markazi ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi tokzorlar maydoni 9,5-10 mln. gektarni, yillik ishlab chiqarish hajmi esa 60-70 mln. tonnadan oshadi. Uzum mahsulotlariga bo'lgan talab asosan Osiyo-tinch okeani hududlari, Yaqin Sharq va Rossiyada ortib bormoqda¹. Bu holat O'zbekistonda ham uzumchilik va vinochilikni barqaror rivojlantirish, yangi sanoatbop navlarni ko'paytirish va innovatsion texnologiyalar asosida etishtirishni rag'batlantirish, qayta ishlash korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Dunyoning etakchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari tomonidan uzumni iqlim o'zgarishlariga moslashuvchan, serhosil, kasallik va qurg'oqchilikka chidamli navlarini yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib borishga ustuvor darajada alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ilmiy izlanishlar uzumchilik biotexnologiyasi, genetika va seleksiyasi, "in-vitro" usulida ko'chatlar etishtirish va boshqa shu kabi istiqbolli yo'nalishlarga qaratilmoqda. Global iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sirlarining oldini olish va unga moslashish uchun uzumchilikda ham innovatsion yangiliklarni va ilg'or agrotexnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, uzumchilik tarmog'i sub'ektlarning o'zaro integratsiyasini takomillashtirish orqali amalga oshirish mumkin bo'lib, bu muammoni hal etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasi rivojida ushbu tarmoqning muhim ekanligi inobatga olinib, so'nggi to'rt yilda 52 ming gektar yangi tokzor tashkil etildi, sohaga 210 milliard so'm subsidiya ajratildi. O'tgan davr mobaynida meva-sabzavotlar eksportida uzumning ulushi 2 baravarga ko'paydi. Lekin, uzumchilik sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlarmiz ko'p"². Hukumatimiz tomonidan sohani keng rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan, uzumchilikka ixtisoslashgan fermer va dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnik bazasi pastligi, ularda yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish jarayonining sustligi, bugungi kunda tashkil etilgan klaster tizimi hamda integratsiya munosabatlarning talab darajasida ishlamasligi, innovatsion yangiliklarni joriy etish uchun moliyaviy mablag'larning etarli emasligi va boshqa sabablar uzumchilik sohasini barqaror rivojlanishiga asosiy to'siq bo'lmoqda. Shu bois, uzumchilik

¹ Анализ размера и доли рынка винограда — тенденции роста и прогнозы (2024–2029 гг.) Source: <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/grapes-market>

² <https://kknews.uz/uz/84266.html> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida uzumchilik sohasida mavjud muammolar va tarmoqni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan selektor yig'ilishi. Toshkent, 2023 yil.

majmuini tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish va ushbu yo‘nalishga bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2024 yil 30 sentyabrdagi PF-151-son “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 avgustdagi PQ-260-son “2023–2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5200-son “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uzumchilik majmuini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy asoslari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlardan O.A.Xolodov, E.Kennet. Boulding, A.V.Mixelev, T.V.Serova, Z.S.Sultanov, N.N.Nasirov va Z.I.Asrorovlar³ ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz, jumladan; Q.A.Choriev, F.T.Egamberdiev, B.X.Shavkarov, M.U.Achilov⁴ va boshqalar tomonidan mazkur tadqiqot yo‘nalishiga oid e‘tiborga molik ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida respublikamizda uzumchilik sohasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini va integratsion munosabatlarni takomillashtirish

³ Холодов О.А. Теоретические аспекты внутрихозяйственных производственно-экономических отношений / О.А. Холодов // Экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2008. – Т. 6. – № 1-2. – С. 359-363.; Kennet Э. Боулдинг. Экономическая теория и социальные системы. Панорама экономической мысли конца XX столетия. Спб.: Экономическая школа, 2002. С. 920.; Михелев А.В. Производственно-экономические отношения в сельском хозяйстве: монография / А.В.Михелев. – Воронеж, 2000. – 216 с.; Серова Т.В. и др. Сельская бедность и сельское развитие в России. М.: ИЭПП, 2004 г.; Султанов З.С. и др. Предпринимательство (малое): состояние, проблемы и перспективы развития в Республики Таджикистан. <https://mognovse.ru/bzp/>.

⁴ Choriyev Q.A. Bozor infratuzilmasini shakllantirish – iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirish garovi// Bozor islohotlari chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va qishloqda infratuzilmalarni rivojlantirish: Respublika ilmiy-amaliy seminar ma‘ruzalar to‘plami. – T.: O‘zBIIIT, 1998. – B.15.; Shavkarov B.X. Uzum yetishtirish va uni qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligi (Toshkent viloyati misolida): diss. ... i.f.n. – T., 2011 y.; Achilov M.U. Mevasabzavotchilik tarmog‘ini modernizatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: diss. ... i.f.f.d. PhD. – T., 2022 y.

bilan bog‘liq mavjud muammolar echimlarini ishlab chiqish zaruriyati va dolzarblik kasb etganligi, ushbu dissertatsiya mavzusi qilib tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot rejalari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning iqtisodiy mohiyatini va nazariy asoslarini yoritish;

uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillar tasniflash;

O‘zbekistonda uzumchilik majmuini rivojlanishining hozirgi darajasini tahlil qilish;

uzumchilikda innovatsiyalardan foydalanish holati hamda uzum etishtirish va uni qayta ishlash samardorligini tahlil qilish;

uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

uzumchilik majmuini rivojlantirishning davlat tomonidan rag‘batlantirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

ekonometrik modelleashtirish asosida uzumchilik majmuida turli omillar hisobiga uzum hosildorligining 2030 yilgacha bo‘lgan prognozini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida uzumchilikka ixtisoslashgan fermer, dehqon xo‘jaliklari, uzumchilik klasterlari hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi sub‘ektlar tanlab olingan. Monografik tadqiqotlar Toshkent, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlaridan tanlab olingan uzumchilik fermer, dehqon xo‘jaliklari va agroklastlar misolida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning predmetini uzumchilik majmuini rivojlantirish jarayonida sub‘ektlar o‘rtasida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida taqqoslama tahlil, so‘rovnoma, iqtisodiy-statistik guruhlash, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatish, ekonometrik modelashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzumzorlarni serhosil va kasallikka chidamli navlar bilan yangilashni rag‘batlantirishda davlat tomonidan ajratiladigan maqsadli kreditlar uchun imtiyozli davrni uzum ko‘chatlarining to‘laqonli hosilga kirish muddati (o‘rtacha 3-4 yil)ni inobatga olgan holda kamida 3 yil muddatdan iborat qilib belgilash taklifi asoslangan;

uzum etishtirish, uni quritish, qadoqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, sotish, eksport qilish va agroturizm yo‘nalishlarini qamrab oluvchi

“Hududiy uzumchilik-vinochilik klasterlari”ni tashkil etish orqali uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish asoslangan;

hududiy uzumchilik-vinochilik klasterlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha valyuta kursining o‘sishi oqibatida kelib chiqadigan zararlarni qisman subsidiyalash, shuningdek uzum hosilini sug‘urtalashda to‘lanadigan sug‘urta mukofotlarining 50 foizgacha bo‘lgan qismini qoplab berish orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekiston uzumchilik majmuida uzum yetishtirish hajmiga ta’sir etuvchi omillar, xususan hosilga kirgan tokzorlar maydoni, yog‘ingarchilik miqdori, o‘rtacha yillik harorat va aholi soni dinamikasi hisobga olingan holda 2030 yilgacha uzum yetishtirish hajmining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uzumchilik majmuida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

uzumchilik majmuini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

uzumchilik majmuini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi agrar iqtisodchi olimlarning uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish borasidagi hozirga qadar shakllangan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish, joylarda tanlangan sub’ektlarda monografik tadqiqotlar va so‘rovnomalar o‘tkazishdan olingan natijalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston fermerlari kengashi hamda uzumchilik agroklasterlaridan olingan ma’lumotlarning tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati uzumchilik sub’ektlari tomonidan uzum etishtirish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishga keng sharoit yaratib berishi bilan belgilanadi. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish uzumchilik majmuini samarali tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlantirish, uzumchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda iqtisodiy bilim va malakalarini oshirish yo‘llarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati uzum mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida sarf-xarajatlarni kamaytirish va pirovard natijada uzumchilik majmui korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda o‘z ifodasini topadi.

Dissertatsiya ishida olingan ilmiy-tadqiqotlar natijalaridan uzumchilik majmui samaradorligini oshirishga qaratilgan Davlat dasturlarini ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitishda, shuningdek, “Uzumchilik iqtisodiyoti” faniga asos solinishida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uzumchilik majmuida tashkiliy-

iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uzumzorlarni serhosil va kasallikka chidamli navlar bilan yangilashni rag'batlantirishda davlat tomonidan ajratiladigan maqsadli kreditlar uchun imtiyozli davrni uzum ko'chatlarining to'laqonli hosilga kirish muddati (o'rtacha 3-4 yil)ni inobatga olgan holda kamida 3 yil muddatdan iborat qilib belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 24 fevraldagi 05/06-04-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, kredit bosimini yengillashtirish fermerlarga uzumzorlarni yangilash, xususan 3 yillik imtiyozli davr mobaynida ko'chatlarni to'liq hosilga kirishi hisobiga hosildorlikni kamida 2–2,5 barobar oshirish imkoniyati yaratiladi;

uzum yetishtirish, uni quritish, qadoqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, sotish, eksport qilish va agroturizm yo'nalishlarini qamrab oluvchi "Hududiy uzumchilik-vinohilik klasterlari"ni tashkil etish orqali uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 24 fevraldagi 05/06-04-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, uzumchilikka ixtisoslashgan fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek saqlash va qayta ishlash korxonalari hamda ushbu zanjirda ishtirok etuvchi boshqa subyektlarning 'uzum yetishtirish – saqlash – qayta ishlash – sotish – eksport qilish' bosqichlari bo'yicha o'zaro integratsiyalashuvi ta'minlanadi;

hududiy uzumchilik-vinohilik klasterlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha valyuta kursining o'sishi oqibatida kelib chiqadigan zararlarni qisman subsidiyalash, shuningdek uzum hosilini sug'urtalashda to'lanadigan sug'urta mukofotlarining 50 foizgacha bo'lgan qismini qoplab berish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 24 fevraldagi 05/06-04-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, uzumchilik majmuida nafaqat texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, balki mavjud ilmiy salohiyat, kadrlar hamda moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish, zamonaviy mexanizmlarni joriy etish jihatidan barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratiladi;

O'zbekiston uzumchilik majmuida uzum yetishtirish hajmiga ta'sir etuvchi omillar, xususan hosilga kirgan tokzorlar maydoni, yog'ingarchilik miqdori, o'rtacha yillik harorat va aholi soni dinamikasi hisobga olingan holda 2030 yilgacha ishlab chiqilgan uzum yetishtirish hajmining prognoz parametrlari bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 24 fevraldagi

05/06-04-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublika bo'yicha uzum yetishtirish hajmi 2010 yildagi o'rtacha 987,3 ming tonnadan 2030 yilga kelib 2034,3 ming tonnaga, yoki 2,1 martaga oshishi, uzum yetishtiriladigan tokzorlar maydoni esa mos ravishda 159,4 ming gektarni tashkil etishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarida muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy ishning asosiy g'oyasi va natijalari asosida Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda jami 15 ta, shundan 8 ta ilmiy maqola va 7 ta tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, 22 jadval, 14 rasm, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topib, uning umumiy hajmi jami 140 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari shakllantirilib, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatlari, amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida innovatsion iqtisodiyot sharoitida uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, majmuani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar ilmiy-nazariy jihatdan bayon etilib, umumlashgan xulosalar ishlab chiqilgan hamda ushbu muammo doirasida xorijiy tajribalarning ahamiyatli jihatlari respublika uzumchilik tarmog'iga joriy etish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Ilmiy manbalar tahlili tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tushunchasini ta'riflash va uning mohiyatini ochib berish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha qarash va yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu qarashlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, *birinchi guruh mualliflar* tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarish munosabatlariga tenglashtirilgani holda tushunish lozimligini qayd etib ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlari ishlab chiqarish munosabatlari tizimini shakllantiradi hamda ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida ixtisoslashuv, mehnat taqsimoti kabilar negizida turlicha munosabatlar sodir etadi, deb hisoblaydilar. *Ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar* esa, aksincha ularning qarashlarini tashkiliy-iqtisodiy nisbatan hajmi va ko'lami jihatidan keng tushunchadir, deb ta'kidlaydilar. Bunday tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar to'liq holda bozor munosabatlarini qamrab olishini, ishlab chiqarish munosabatlari faqat ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy bo'linma sifatida bevosita ishlab chiqarish munosabatlarini, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlari iqtisodiy

munosabatlarning mahsulot tayyorlash va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qismini qamrab oladi, degan g‘oyani ilgari surganlar. Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqqan holda, *“Uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmi bu – uzum mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ayirboshlash jarayonlarida ishtirok etuvchi bir-biri bilan iqtisodiy va tashkiliy jihatdan o‘zaro bog‘liq korxonalar, xo‘jalik va boshqa sub‘ektlar o‘rtasidagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot etishtirish jarayonida yuzaga keladigan zamonaviy boshqarish uslublariga asoslangan samarali munosabatlar yig‘indisidir”*, ma’nosida ta’riflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Uzumchilik majmuini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi uch asosiy guruhdan iborat. Birinchi guruh – iqtisodiy mexanizmlar: moliyalashtirish, kreditlash, soliqqa tortish, baho shakllanishi, investitsiya, sug‘urta, subsidiya va bojxona instrumentlaridan tashkil topadi. Ikkinchi guruh – tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari: integratsiya va kooperatsiya sub‘ektlari, zamonaviy boshqaruv, kadrlar va axborot ta’minoti. Uchinchi guruh – umumta’sir etuvchi mexanizmlar bo‘lib, ular ikkala asosiy guruhga ta’sir etadi. Bularga huquqiy-me’yoriy baza, bozordagi talab va taklif, kon’yunktura, raqobat muhiti va ilmiy ta’minot kiradi (1-rasm).



1-rasm. Uzumchilik majmuini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy tuzilishi⁵

⁵ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ta'kidlash joizki, uzumchilikni barqaror rivojlantirishda tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Birinchidan, uzumning biologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan stresslarni yumshatish va navlarni bosqichma-bosqich yangilab borish talab etiladi. Ikkinchidan, uzumchilik majmuida ishtirok etuvchi xo'jaliklar va sub'ektlar o'rtasida iqtisodiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash orqali tarmoqlararo munosabatlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Faqat ushbu holat uzumchilik majmuining samaradorligini oshirish imkoniyatini to'liq yaratadi.

Shuningdek, yuqorida aytib o'tganimizdek, uzumchilik majmuini qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq alohida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu xususiyatlarni har tomonlama chuqur o'rganish, ishlab chiqarishni ularga mos ravishda tashkil etish va ulardan kelib chiqqan holda tarmoq faoliyatini belgilash ko'zlangan natijalarga erishish uchun zamin yaratadi.

Ma'lumki, uzumchilik majmuini samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishiga ta'sir qiladigan turli xildagi omillar mavjud. Ushbu omillar u yoki bu darajada uzumchilikning iqtisodiy samaradorligiga u yoki bu ko'rinishda o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun bu omillarni sinflashtirgan holda bir tizimga keltirish va ularning ta'sir darajasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, uzumchilik majmuiga ta'sir etuvchi barcha omillarni avvalo ichki va tashqi omillarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ichki va tashqi omillarni esa, kelib chiqish sababiga ko'ra tabiiy, tashkiliy-iqtisodiy, texnik-texnologik, huquqiy-me'yoriy, bozor kon'yukturasi va boshqa turdagi omillarga guruhlash lozim. Jumladan, ichki omillarning o'zi ham turli tuman bo'lib ularni tashkiliy-iqtisodiy, texnik-texnologik, tabiiy va ijtimoiy kabi sinflarga ajratib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-iqtisodiy omillar tarkibiga uzumchilikda integratsiya darajasi, klaster, kooperatsiya munosabatlarni joriy etilganligini keltirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda uzumchilik majmuini rivojlanishining hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda uzumchilik majmuini rivojlanishining hozirgi darajasi tahlil etilgan, uzum etishtirish va uni qayta ishlash samardorligi, mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash jarayonlaridagi mavjud tizimli muammolar aniqlangan.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz agrar sohasida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun, bosqichma-bosqich zaruriy institutsional asoslar yaratilgan holda samarali iqtisodiy mexanizmlar joriy etib borildi. Tanlangan strategiya va uning izchil ravishda amaliyotga joriy etilishi, boshqa tarmoqlar qatorida uzumchilikni ham barqaror rivojlanib borishiga turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda mamlakatimizda uzumchilik majmuasi barqaror rivojlanmoqda va ekin maydonlari izchil ravishda kengayib bormoqda. Jumladan, 2019 yilda tokzorlar uchun ajratilgan er maydoni 120,2 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 138,4 ming gektarga etgan, ya'ni qariyb 18,2 ming gektarga (taxminan 15%) oshgan. Shu bilan birga, uzumzorlar umumiy ekin maydonlaridagi ulushi ham 17,8 foizdan 18,4 foizgacha ko'tarilgan. Xo'jalik yuritish shakllari kesimida qaralganda esa quyidagi o'zgarishlar kuzatilgan: *fermer xo'jaliklarida* uzumzorlar maydoni 2019 yilda 98,0 ming gektar bo'lgan

bo'lsa, 2023 yilda 111,6 ming gektarga etib, taxminan 14 foizga o'sgan; *dehqon xo'jaliklarida* 2019 yilda 17,3 ming gektarni tashkil etgan maydon 2023 yilda 19,4 ming gektarga etgan, ya'ni qariyb 2,1 ming gektarga yoki 12 foizga oshgan; *boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida* esa ushbu ko'rsatkich 4,9 ming gektardan 7,4 ming gektargacha ko'tarilib, 2,5 ming gektarga yoki 51 foizga oshgan.

Umuman olganda, barcha xo'jalik shakllarida uzum etishtirish maydonlarining barqaror oshishi mamlakatda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar, investitsiyalarning ko'payishi va bozor ehtiyojlarining oshib borayotganidan dalolat beradi.

Uzum etishtirish maydonlarining kengayishi bilan birga, sohaning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan hosildorlik ko'rsatkichi 2023 yilda respublika bo'yicha o'rtacha 153,4 s/ga ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2019 yilga nisbatan deyarli o'zgaragan bo'lsa-da, xo'jalik turlari kesimida turlicha dinamika kuzatilgan. *Fermer xo'jaliklarida* 2019 yilda hosildorlik 111,9 s/ga bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 115,0 s/ga gacha ko'tarilgan. Har qancha o'sish miqdori kichik (2,8%) bo'lsa-da, bu agrotexnik tadbirlarning samara berganini ko'rsatadi. Ya'ni, o'sish sekin, ammo barqaror bo'lgan. *Dehqon xo'jaliklarida* esa eng yuqori hosildorlikni qayd etgan. 2019 yilda 225,4 s/ga bo'lgan ko'rsatkich 2023 yilda 236,4 s/ga gacha ko'tarilgan. 2020 va 2021 yillarda ham bu ko'rsatkich mos ravishda 229,2 va 229,8 s/ga bo'lganini hisobga olganda, hosildorlikdagi o'sish izchil va barqaror bo'lib, umumiy o'sish 4,9 foizni tashkil etgan. *Boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida* esa aksincha, pasayish kuzatilgan. 2019 yilda 80,9 s/ga bo'lgan hosildorlik 2023 yilda 68,6 s/ga gacha tushib ketgan, ya'ni 15,2 foizga kamaygan. Bu holatda agrotexnik tadbirlarning to'liq bajarilmayotgani yoki moliyaviy resurslar etishmasligi kabi omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Umumiy hisobda, respublika bo'yicha yalpi uzum hosili so'nggi besh yil mobaynida o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2019 yilda 1603,3 ming tonna uzum etishtirilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 1731,7 ming tonnaga etgan va 8% o'sishga erishilgan. Bu o'sishda asosiy ulush an'anaviy ravishda dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgani qayd etilmoqda.

Mazkur holat, o'z navbatida, uzumzorlar maydonlari va ularning hosilga kirish holatini tahlil qilish zarurligini ham kun tartibiga olib chiqadi. Chunki, uzum etishtirishning iqtisodiy samaradorligi faqat maydonlarning kengayishi bilan emas, balki hosilga kirgan tokzorlar salmog'i bilan ham bevosita bog'liqdir. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, uzumzorlar umumiy maydonida hosilga kirgan tokzorlar ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda – 2019 yilda 86,9% bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 81,6% gacha pasaygan. Bu tendensiya, avvalo, yangi uzumzorlarning barpo etilishi, ya'ni hosilga kirmagan yosh tokzorlar ulushining ortishi va mavjud eski tokzorlarni qayta tiklash jarayonlari bilan bog'liqdir.

Umuman olganda, qayd etilgan o'zgarishlar aholi jon boshiga ishlab chiqarish miqdorini ijobiy tendensiyada o'zgarayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda mevasabzavot va uzum mahsulotlarini ishlab chiqarish aholi ehtiyojlaridan ancha yuqori darajada ta'minlangan bo'lib, bu holat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport

salohiyatini oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ayrim yo'nalishlarda mahsulot hajmining kamayishi kuzatilayotgani sohada samarali resurs boshqaruvi, agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.

1-jadval.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdorining o'zgarishi, kg⁶

Ko'rsatkich nomi	Yillar					2023 yilda 2019 yilga nisbatan, (% p.)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Meva	82	81,4	81,7	84,1	84,8	103,4
Tibbiy me'yorga nisbatan (75 kg),%	109,3	108,5	108,9	112,1	113,1	+3,8 p.
Sabzavot	396,2	392,8	404,9	409,7	313,9	79,2
Tibbiy me'yorga nisbatan (119,2 kg),%	332,4	329,5	339,7	343,7	263,3	- 69,1 p.
Uzum	47,7	46,5	48,6	49,4	47,2	99,0
Tibbiy me'yorga nisbatan (16,6 kg),%	287,3	280,1	292,8	297,6	284,3	-3 p.

Ayni paytda, mazkur ijobiy jarayonlarning hududiy kesimda qanday namoyon bo'layotganini tahlil qilish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samaradorligini xolis baholash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, turli tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlariga ega bo'lgan hududlarda faoliyat yuritayotgan uzumchilik klasterlarining holati tahlil etildi. Misol uchun "Denov vino-arog" AJda mahsulot sotishdan sof tushum 2020 yildagi 18 409,8 mln. so'mdan 2023 yilda 9 176,4 mln so'mgacha qisqargan. Ya'ni, uch yil davomida umumiy tushum 50,2 foizga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu holat korxonaning bozorda raqobatbardoshligining zaiflashganini, ichki samaradorlikning etarli darajada emasligini va ehtimol, marketing va sotish strategiyalarining samarasizligini anglatadi. Bundan tashqari, korxonada mahsulot tannarx kamaygani bir qarashda, ijobiy holat bo'lib ko'rinsa-da, tushum bilan birgalikda pasaygani tufayli ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatilgan. Bu o'z navbatida, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish qulayliklarini optimallashtirishning zarurligini ko'rsatadi.

Shu jihatdan, korxonada kuzatilayotgan manfiy moliyaviy dinamikani bartaraf etish uchun korxonaning ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor talablariga mos strategik qarorlar qabul qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanida faoliyat yuritayotgan "Bunyod Gold" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 2020–2023 yillar davomida iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan barqaror dinamika saqlanganligini

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

ko‘rishimiz mumkin. Tahlillarga ko‘ra, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning sotishdan sof tushumi ko‘rsatkichi 2020 yilda 4 861,8 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 6 611,8 mln so‘mga etgan va bu 36 foizlik o‘shishni anglatadi. Shu bilan birga, mahsulot tannarxi ham o‘shish traektoriyasini namoyon etgan, ya‘ni mos ravishda 41 foizga oshgan. Tannarxning sof tushumga nisbatan tezroq o‘sgani mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari ortishi va xomashyo, energiya hamda mehnat resurslarining narxlari oshib borishi bilan izohlanadi.

2-jadval.

Surxondaryo viloyati, Denov tumani, “Denov vino-arog” AJning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ming so‘m⁷

Ko‘rsatkich nomi	Yillar				2023 yilda 2020 yilga nisbatan,%
	2020	2021	2022	2023	
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning sotishdan sof tushum	18409823	15329133	14093323	9176427	49,8
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	13895362	12889196	11409759	8300880	59,7
Davr xarajatlari	3000016	3828556	4849746	4412188	147,1
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	1101740	1814268	1273017	582622	52,9
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi	412705	-2410422	-3345030	-4119263	-998,1
Hisobot davrining sof foydasi	281257	-2410422	-3345030	-4119263	-1464,6

Shuni ta’kidlash joizki, respublika hududlarida innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari bir xil emas. Xususan, Farg‘ona, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari uzumchilikni rivojlantirishda o‘ziga xos afzalliklarga ega. Farg‘ona viloyatida uzumchilik sohasida an’anaviy tajriba va innovatsion yondashuvlar muvaffaqiyatli uyg‘unlashgan. Avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va sensor texnologiyalari tuproq namligini nazorat qilib, suv resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Qayta ishlash texnologiyalarini yangilash orqali mahalliy va xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulot etishtirishga e’tibor kuchaymoqda.

Toshkent viloyatida agrotexnika va agronomiya yo‘nalishlarida innovatsion texnologiyalar joriy etilib, hosildorlikni prognoz qilish, mehnat unumdorligini oshirish va avtomatlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Qayta ishlashda Avtomatlashtirilgan liniyalar mahsulot sifatini oshirib, eksport salohiyatini mustahkamlamoqda. Surxondaryo viloyatida esa quyoshli iqlim va uzoq yoz mavsumi uzumchilik uchun qulay sharoit yaratadi. Bu erda dronlar va sun‘iy intellekt texnologiyalari orqali tokzorlarni nazorat qilish, zararkunandalarga qarshi kurashish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.


Tadqiqot ishi maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ushbu viloyatlardagi

⁷ Surxondaryo viloyati, Denov tumani, “Denov vino-arog” AJning ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

uzumchilik majmuida innovatsiyalardan foydalanish darajasini o'rganish va baholash maqsadida fermer xo'jaliklari va boshqa uzumchilik korxonalari o'rtasida anketa so'rovnomalari o'tkazildi. Tadqiqot so'rovnomasi fermer xo'jaliklari kesimida shakllantirildi hamda Farg'ona, Toshkent va Surxandaryo viloyatlaridagi Oltiariq, Farg'ona, Qo'shtepa, Parkent, Oltinsoy va Denov tumanlarida faoliyat olib borayotgan jami 106 ta fermer xo'jaliklari va boshqa turli respondentlar bilan "yuzma-yuz so'rov" metodikasi asosida 2023 yil natijalari bo'yicha o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazilgan viloyatlar suv ta'minoti yaxshi va iqlimi qulay hududlarda joylashgan. Shu bois, tadqiqot fermer xo'jaliklari tuproq va suv sharoiti yaxshi bo'lgan tumanlar kesimida olib borildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etishda asosiy to'siq moliyaviy mablag'lar etishmasligi, yuqori kredit foizlari va subsidiya olishdagi muammolar ekanligi qayd etildi. 106 ta fermer xo'jaligidan 59 tasi innovatsion texnologiyalardan foydalanmoqda, qolgan 44 tasi esa moliyaviy yoki axborot etishmasligi sababli hali buni amalga oshirmagan. Bu holat sohada innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini anglatadi. Shuningdek, "Ishlab chiqarishda zarur bo'ladigan innovatsion texnologiyalar, yangi texnika, uskuna, navlar va boshqa yangiliklar to'g'risida asosan qaerdan ma'lumot olasiz?" degan savolga javoban so'rovda qatnashgan fermer xo'jaliklarining 31,4% internet manbalari orqali, 27,2% ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, gazeta va boshqalar) orqali, 23,5% tuman qishloq xo'jaligi bo'limi orqali, 9,8% boshqa fermerlardan, 8,1% esa tuman fermerlar kengashidan yangiliklar olishini bildirgan.

Shu bilan birga, "Sizning fermer xo'jaligingiz samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda qanday innovatsion texnologiya yoki yangilikni joriy qilish zarur deb hisoblaysiz?" savoliga javoban, respondentlarning 39,5% zamonaviy texnologiyalar xarid qilishni, 20,9% esa yangi navlar urug'i va ko'chatlarini joriy etishni muhim deb topgani ma'lum bo'ldi (2-rasmga qarang).




2-rasm. Fermer xo'jaliginini samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiya yoki yangilikni joriy etish (%)⁸.

Shu bilan bir qatorda, so'rovnoma natijalariga ko'ra, uzum etishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, sotish

⁸ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

kanallarining nobarqarorligi va fermer xo‘jaliklarining infratuzilmadan chetda qolishi hosil yo‘qotishlarga olib kelmoqda. Sohada barqaror rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun qo‘shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish hamda unda ishtirok etuvchi sub’ektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shu asosda, sohaviy munosabatlarni majmuaviy yondashuv asosida isloh qilish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Uzumchilikda qo‘shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni majmuaviy yondashuv (tavsiya)⁹

⁹ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Bu jarayonda barcha ishtirokchilar – ya’ni ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchilar, logistika xizmatlari ko’rsatuvchilar, saqlash infratuzilmalari, savdo tashkilotlari va davlat tuzilmalari o’rtasidagi hamkorlik va manfaatlar uyg’unligini ta’minlash asosiy shart hisoblanadi.


“Uzumchilik majmuida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari” deb nomlangan uchinchi bobda uzumchilik majmuini rivojlantirishning davlat tomonidan rag’batlantirish va tarmoqda integratsiya munosabatlarini rivojlantirish hamda tarmoqda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning asosiy yo’nalishlari bo’yicha takliflar, shuningdek, uzumchilikni rivojlantirish istiqbolli parametrlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda faoliyat ko’rsatayotgan meva-sabzavotchilik, uzumchilik klasterlari ham etarli darajada hamohanglikda ishlay olmasligi fermer va dehqonlarda klaster to’g’risida salbiy tushunchalar paydo bo’lishiga olib kelmoqda. Xususan, Farg’ona viloyati, Qo’qon Shahri, “Mastona” aksionerlik jamiyati uzumchilik klasterining 2021-2023 yillardagi asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlarida ijobiy o’zgarishar kuzatilsada, xarajatlar ham ortib borganligini kuzatish mumkin. Bunga qo’shimcha, korxonada valyutada kredit olganligi boisdan, kurs o’zgarishi farqidan kelib chiqadigan zararlar ham mavjud. Klasterning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini monografik o’rganganimizda, unda boshqaruv raisi bilan birga yana uchta direktor, ya’ni moliyaviy ishlar bo’yicha, ishlab chiqarish masalalari va marketing bo’yicha direktorlar faoliyat yuritishi bilan birga 15 ta bo’lim, makaziy laboratoriya unga yana ikkita sex va boshqa mutaxassislar faoliyat yuritib kelmoqda.

Umuman olganda, uzumchilik yo’nalishida faoliyat yuritayotgan klasterlar ishida qator kamchiliklar mavjud. Jumladan:

- mahsulotni standartlashtirish va sertifikatsiyalash tizimi etarli darajada tashkil etilmagan, aylanma mablag’lar etishmayapti;
- sovutgichli omborlar sig’imining faqat 30-35 foizi, qayta ishlash korxonalari quvvatining esa 40-45 foizi foydalanilmoqda;
- marketing tizimi sust tashkil etilgani tufayli fermer va dehqonlar mahsulotni tavakkaliga etishtirmoqda, bu esa foyda kamayishiga olib kelmoqda;
- klasterlarda malakali kadrlar etishmasligi kuzatilmoqda;
- klaster va ishtirokchi sub’ektlar o’rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar etarlicha shakllanmagan;
- ilmiy muassasalar bilan hamkorlik va tayyor ishlanmalarni joriy etish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo’yicha hamkorlik mexanizmlari zaif.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, tuman miqyosida uzumchilik-vinochilik klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tavsiya etildi (4-rasm). Uning maqsadi – uzum etishtirishdan tortib, uni quritish, qadoqlash, qayta ishlash, sotish, eksport va agroturizmni qamrab olgan majmuaviy klasterni tashkil etishdir. Klasterni rivojlantirishda davlat va biznes o’rtasida hamkorlik muhim bo’lib, hokimiyat, sohaviy tashkilotlar, bank, soliq va sug’urta tizimlari orqali imtiyozli moliyaviy va institutsional qo’llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.




4-rasm. Hududiy uzumchilik-vinochilik klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (tavsiya)¹⁰.

Uzumchilik-vinochilik klasterini yanada rivojlantirishda faoliyat turini diversifikatsiya qilish, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda hozirda eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lgan uzum-vinochilik agro-turizmni tashkil etish yaxshi samara keltiradi deb hisoblaymiz. Aytish lozimki, agroturizmni tashkil etilishi orqali ishlab chiqarilayotgan uzum mahsulotlarining reklamasini ham parallel ravishda amalga oshirish imkoniyati bo‘ladi.

¹⁰ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Birinchidan, uzumchilik klasterlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq tizimi-ning rag‘batlantiruvchi funksiyasidan samarali foydalanish zarur. Xususan, yangi tashkil etilgan klasterlarga uch yillik soliq ta‘tillari berish, yaroqsiz erlarda innovatsion usulda mahsulot etishtirgan fermerlarni besh yilgacha soliqdan ozod etish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish maqsadga muvofiq.



5-rasm. Uzumchilik-vinochilik klasterlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar¹¹

¹¹ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ikkinchidan, *solliqqa tortish* sohasida uzumchilik klasterlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun soliq tizimining rag‘batlantiruvchi funksiyasidan samarali foydalanish talab etiladi. Jumladan, yangi tashkil etilgan uzumchilik-vinochilik klasterlarini uch yilgacha soliq ta‘tillari bilan ta‘minlash, ushbu sohada yaroqsiz erlardan samarali foydalanishga erishgan fermer va dehqon xo‘jaliklarini innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot etishtirgan taqdirda, ularni yangilangan er maydonlariga mutanosib ravishda besh yil muddatga soliq to‘lovlaridan ozod etish borasida qonunchilik takomillashtirilishi lozim.

